

YASHIL IQTISODIYOT VA MEHNAT BOZORI

Mirolimov Mirislom Mirshokir o'g'li

TDIU Iqtisodiy statistika kafedrası v.b dotsenti, PhD

e-mail:mirislom.mirolimov3138@gmail.com

+998903343138

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotini yashil iqtisodiyotga o'tkazish borasida olib borilayotgan ishlar va mehnat bozoriga bo'layotgan ta'sirlarini kamaytirish borasidagi chora-tadbirlar statistik tadqiq etilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyotning yurtimiz iqtisodiyotidagi kelajak istiqbollari yuzasidan tahliliy fikrlar berilgan. Bundan tashqari yashil iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri ko'rib chiqilgan hamda uni salbiy ta'sirlarini kamaytirish yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, yashil kasb, yashil hunar, yashil bandlik, mehnat resurslari, integratsiya, mehnat bozori, ish bilan bandlik, ishsizlik darajasi.

ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И РЫНОК ТРУДА

Mirolimov Mirislom Mirshokir o'g'li

И.о. доцента кафедры экономической статистики ТГЕУ, PhD

e-mail:mirislom.mirolimov3138@gmail.com

+998903343138

Аннотация: В статье дается статистический анализ проводимой в настоящее время работы по переходу экономики нашей республики на «зеленую» основу и мер по снижению ее влияния на рынок труда. Также даются аналитические взгляды на будущие перспективы зеленой экономики в экономике нашей страны. Кроме того, было рассмотрено влияние зеленой экономики на рынок труда и разработаны выводы и предложения по снижению ее негативного воздействия.

Ключевые слова: Зелёная экономика, зелёная профессия, зелёная торговля, зелёная занятость, трудовые ресурсы, интеграция, рынок труда,

занятость, уровень безработицы.

GREEN ECONOMY AND LABOR MARKET

Mirolimov Mirislom Mirshokir o'g'li

Acting Associate Professor of the Department of Economic Statistics, TSUE, PhD

e-mail: mirislom.mirolimov3138@gmail.com

+998903343138

Abstract: *This article provides a statistical analysis of the current work on the transition of our republic's economy to a green economy and measures to reduce its impact on the labor market. It also provides analytical views on the future prospects of the green economy in the economy of our country. In addition, the impact of the green economy on the labor market is considered and conclusions and proposals are developed to reduce its negative impact.*

Key words: *labor resources, integration, labor market, employment, unemployment rate, distribution of labor resources, green economy.*

Kirish.

Maqolada mehnat bozorini modernizatsiya qilish va ishsizlikni qisqartirish, atrof-muhit va energiya samaradorligini oshirish bilan ko'kalamzorlashtirish muammolarini hal qilishni muvofiqlashtirish imkonini beruvchi yashil iqtisodiyotni rivojlantirish kontekstida bandlik masalalari ko'rib chiqiladi.

Fikrimizcha yashil iqtisodiyotga o'tish davrida "iqtisodiy samaradorlik", "mehnat bozorining rivojlanishi va ekologik farovonlikka erishish" tushunchalari orasida qarama-qarshi tendentsiyalarning mavjud.

Birinchidan, atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy kapitalning kamayishi mehnat bozori va bandlik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, atrof-muhitni yaxshilash va to'plangan chiqindilarni yo'q qilish bo'yicha tadbirlar, atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari, tovarlar va xizmatlar bozorining rivojlanishi nafaqat yashil, balki umumiy bandlikni kengaytirishga yordam beradi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda yashil bandlik borasida keng qamrovli ishlar

rejasi ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

Darxaqiqat bu borada O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-sonli "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 2-dekabrdagi "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Natijada respublikamizda amalga oshirilayotgan tadbirlarni quyidagi bir-nechta: turlarga ajratishimiz mumkin bo'ladi.

1. Aholi va iqtisodiyotni atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish bilan bog'liq tadbirlar;
2. yashil ish o'rinlari yaratish, kadrlar tayyorlash va rivojlantirish;
3. yangi tashkil etilgan yashil kasblar talablariga muvofiq ishchilarning malakasi oshirish tizimini joriy etish;
4. ekologik toza tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish;
5. iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yashil kasblar ro'yxati ishlab chiqish;
6. yashil ish o'rinlarini yaratish bo'yicha asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini aniqlash;
7. joylarda amalga oshirilayotgan mehnat bozorini ko'kalamzorlashtirish yo'nalishlari va tendentsiyalarining qiyosiy tahlilini o'tkazish, shu jumladan qayta tiklanadigan energiya, yashil qurilish, qayta ishlash va qayta ishlash tarmoqlarida ish o'rinlarini yaratish;
8. yashil chiqindilar, organik dehqonchilik, yashil ish o'rinlarini baholash va hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish kabi turlarga ajratishimiz mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi

Atrof muhit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida "yashil iqtisodiyot" tushunchasi shakllana boshlagan. Ilk bor "yashil iqtisodiyot" atamasi

1989 yilda Buyuk Britaniyalik atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan “Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish rejasi” deb atalgan, hukumat uchun yozilgan hisobotda qo‘llanilgan[1] “Yashil iqtisodiyot” tushunchasining nisbatan to‘liq ta’rifi BMTning Atrof muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan. Unda “yashil iqtisodiyot”- bu insonlar faravonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchilliklarni sezilarli darajada kamaytirishga olib keladigan iqtisodiyotdir, deb keltirilgan[2].

Iqtisodiy fanlar doktori, professor M. Pardayevning fikricha, “Yashil iqtisodiyot” bu iqtisodiy tizim hisoblanib, uning bosh maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgandir[3].

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasining mohiyatini yoritib berishda umum qabul qilingan yondashuvlarning mavjud emasligi “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining hali shakillanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, “yashil iqtisodiyot” nazariyasi, tamoyillari yoki “yashil iqtisodiyot” siyosatiga nisbattan ham qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi sifatida yashil iqtisodiyotga o‘tish davrida ish bilan bandlikni samaradorligini baholash zarurati asoslandi. Modomiki, mehnat bozori infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash yashil iqtisodiyot davrida bir muncha qiyinchiliklar tug‘dursada, ularni statistik jadvallar asosida, koorelyatsion-regression taxlil qilish, omillar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni statistik aniqlash vazifasi asoslandi. Hozirgi vaqtda mehnat bozorida axborotlar roli jiddiy ravishda o‘smoqda. Boshqaruv maqsadlari uchun axborotlarga yuqori ehtiyoj va axborot jarayonlarining shiddatli rivojlanishi uning infratuzilmasi tarkibiy qismlari yaratishni birinchi o‘ringa olib chiqadi. Kishilik faoliyatining tegishli sohalarida samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan ilmiy-texnik, siyosiy, iqtisodiy va har qanday axborotlar hajmining o‘sishi boshqaruvda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Tahlil va natijalar


Atrof-muhit va bozor munosabatlarida tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash, aholining ekologik va ijtimoiy turmush darajasini ta'minlash uchun mehnat bozori bilan yaqindan hamkorlik qiladi;

ekologik tovarlar, ishlar va xizmatlar bozorini rivojlantirish.

iqlim o'zgarishining bandlikka ta'sirini o'rgandik.

Binobarin, atrof-muhitning unga salbiy ta'sirini kamaytirish, jumladan, yashil ish o'rinlarini yaratish hisobiga qulay holatini yaratish iqtisodiy o'sish va aholi ijtimoiy farovonligini oshirishning zarur sharti va omilidir. Va aksincha, irratsional foydalanish


tabiiy resurslar, tabiiy kapitalning kamayishiga, ifloslanishiga olib keladi. Atrof-muhitni buzadi va aholini yashil ish bilan ta'minlashga to'sqinlik qiladi.



1-rasm. Iqtisodiyotni “yashil” iqtisodiyotga o'tkazish tamoyillari

Demak, “yashil” iqtisodiyotga o'tishda aniq vazifalarni belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham “yashil” iqtisodiyatning asosiy vazifasi bu mehnat bozorini rivojlantirish uchun qulay va xavfsiz shart-sharoitlarni

yaratishdan iboratdir. Bunda esa davlat va korxona vazifalari alohida ahamiyat kasb etadi. O'tish davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va kamchiliklarni davlatchilik asosida xal qilinsa, uning samarali amal qilinishi korxonalar faoliyati bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Mehnat bozori mehnat va mehnat munosabatlari sohasida sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlar tendensiyalarini o'rganish maqsadida dinamik qatorlar tahlili usulidan foydalanadi. Bunday tahlil natijasida aniqlangan mehnat bozori ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasidagi tendensiyalar ularning interpolatsiyasi (tadqiq qilinayotgan dinamika qatorlari ichida noma'lum darajalarni topish) va trend ekstropolatsiyasi (bashorat qilish) uchun boshlang'ich material xizmatini o'taydi.



2.3-rasm. Yashil iqtisodiyotga o'tish davrida 2026-yilgacha sanoat tarmoqlarida band bo'lganlar hisobidan ortishi kutilayotgan ish o'rinlari¹

Mintaqa mehnat bozorida amalga oshirilgan statistik tadqiqotlar va hisob-kitoblar natijasida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o'tish talablariga to'liq rioya qilinishi natijasida 2030-yilga qadar 6 mln ortiq ish yoq bo'lib ketishi hamda 9 mlndan ortiq yangi ish o'rinlar yaratilishi kutilmoqda. Yuqoridagi jadvalda esa 2026-yilga kelib sa'noat

¹ <http://evrostat.org> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
<https://scientific-jl.com/>

tarmoqlarida paydo bo'lishi kutilayotgan kasblar (raqamlarda) ko'rsatilgan. Eng ko'p qurilish sohasiga tegishli bo'lib 18,3 ming ta, eng kam esa san'at sohasiga tegishli bo'lib 1,0 ming ta yangi ish o'rinlari paydo bo'lishi kutilmoqda.

Taqidlab o'tish kerakki, iqtisodiyotni "yashil" iqtisodiyotga o'tkazish jarayonida yaratiladigan barcha ish o'rinlari soni investitsiyalar va talab hajmiga, bandlik elastikligiga va savdo ta'siriga bog'liq. Yalpi hududiy mahsulot va yo'qotishlar yig'indisi ish joyini o'zgartirishga majbur bo'lgan ishchilar soniga teng. Iqtisodiyotni "yashil iqtisodiyot" talablariga moslashtirish jarayoni aholi bandligiga ta'siri ijobiy bo'ladimi yoki sal'biy, degan savolga javob ushbu ish oqimlari va davlatning aralashmasi o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlarga bog'liq hisoblanadi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy jihatdan narxlar va texnologiyalarning hozirgi darajasidan "yashil" iqtisodiyotga to'liq o'tilgan holatda sezilarli samaradorlikka erishish mumkin bo'ladi. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonlarida nafaqat bandlikning umumiy sonida va uning tarkibidagi o'zgarishlarni keltirib chiqarishi, balki bandlik sifatiga ham ta'sir qilishi mumkin.

1-jadval

"Yashil" iqtisodiyotda iqtisodiy faoliyat turlari va ularga mos keladigan kasblar tahlili²

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha	Kasblar	Tpning yo'nalishi mutaxaccilapi
Yashil sanoat	mashina operatori, kompyuter muhandisi, kimyo muhandisi, elektrotexnika muhandisi, mexanik muhandis, texnologik muhandis, mikrobiolog, dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisi, atrof-muhit muhandisi	Iqtisodiyot, huquq, biologiya, kimyo, muhandislik, axborot texnologiyalari
Yashil bino	Elekttrchi, duradgor, tom yopuvchi, konditsioner va ventilyatsiya tizimini o'rnatuvchi, izolyator, qurilish menejeri, bino nazorati inspektori, montajchi, qurilish ishchisi, qurilish mashinasi	Muhandislik fanlari, davlat va kommunal boshqaruv, qurilish

² Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlari asosida tuzilgan.
<https://scientific-jl.com/>

	haydovchisi, plastik oyna o'rnatuvchi, energiya tejovchi isitish tizimini o'rnatuvchi, sovutish tizimini o'rnatuvchi	
Shamol kuchi	Atrof-muhit bo'yicha mutaxassis, metall ishchi, elektr montajchi, qurilish ishchisi, ishlab chiqarish menejeri, shamol turbinasi o'rnatuvchisi	Energiya, ekologiya
Quyosh energiyasi	Atrof-muhit bo'yicha mutaxassis, elektromontyor, mexanik, payvandchi, metall ishlab chiqaruvchi va ta'mirlovchi, quyosh batareyasi va akkumulyator o'rnatuvchisi, quyosh batareyasi va batareya o'rnatish yordamchisi, tom yopish ustasi	Energiya, ekologiya
Bioyoqilg'i ishlab chiqarish	Kimyogar, kimyo muhandisi, ishlab chiqarish texnolog, bioyoqilg'i uskunalari bo'yicha mutaxassis	Biologiya, kimyo, biotexnologiya
Yashil transport va transport infratuzilmasi	Muhandis, mexanik, muhandis-konstruktor, urbanist (hududiy rivojlanish bo'yicha mutaxassis), eko-avtomobillarni ta'mirlash ustasi	Muhandislik fanlari
Organik dehqonchilik	Agronom, qishloq xo'jaligi texnolog, meliorator, zootexnik, zootexnik, chorvachilik kompleksi va mexanizatsiyalashgan ferma operatori, mashina sog'ish operatori, veterinar, o'simlikshunos	Qishloq xo'jaligi, er tuzish
Chiqindilarni qayta ishlash, chiqindilarni qayta ishlash, axlatni yo'q qilish	Ekolog, atrof-muhit muhandisi, mexanik, chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha mutaxassis, chiqindilarni olib tashlash va utilizatsiya qilish bo'yicha mutaxassis, chiqindilarni qayta ishlash uskunalarini loyihalash, ishlab chiqish va ulardan foydalanish bo'yicha mutaxassis	Ekologiya, iqtisodiyot va huquq, biotexnologiya, menejment, loyihalarni boshqarish
Uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi	Texnologik muhandis, chilangar, texnologik quvurlarni o'rnatuvchi, muhandis-konstruktor	Muhandislik fanlari, davlat va shahar boshqaruvi, atrof-muhitni boshqarish

1-jadval ma'lumotlari asosida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, bugungi

kunda davlat va nodavlat ta'lim muassasalari tomonidan o'qitiladigan ayrim mutaxassisliklarni qamrov darajasini bugungi zamonaviy iqtisodiyot talablari darajasiga olib chiqish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida mehnat bozoriga kirib kelishi kutilayotgan "yashil kasblar", "yashil ish o'rinlari" va "yashil bandlik" talablari darajasida amalga oshirish zarurati tugulmoqda.

Toshkent viloyatida bugungi kunda "yashil" iqtisodiyot talablariga mos keluvchi faoliyat turlaridan "quyosh energiyasi", "shamol ventilyatorlari", "musurni qayta ishlash va ahlalni yoq qilish" kabi iqtisodiy faoliyat turlari rivojlanmoqda va faoliyatlari asta-sekinlik bilan kengaytirib borilmoqda.

2.6-jadval

Toshkent viloyatida mavjud bo'lgan "yashil" iqtisodiyot talablariga mos iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumot³

Iqtisodiy faoliyat turlari	Chiqib ketishi kutilayotgan kasblar	Kirib kelishi kutilayotgan kasblar
Quyosh elektor stansiyalari va quyosh panellarini ishlab chiqarish	1) elektr energiyasining ayrim toifadagi xodimlari, 2) elektr hisoblagich ishlab chiqaruvchi xodimlar, 3) aholini elektrdan qonuniy foydalanishi nazoratchisi faoliyatida o'zgarishlar 4) an-anaviy elektr trubinalari ishlab chiqaruvchi muxandis, 5) an-anaviy elektor hisoblagich nazoratchisi,	1) quyosh panellari ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi xodimlar, 2) quyosh panellarini o'rnatuvchi xodimlar, 3) quyosh panellarini o'rnatuvchi mutaxassis, 4) elektromontyor, 5) mexanik, 6) metall ishlab chiqaruvchi va ta'mirlovchi, 7) quyosh batareyasi va akkumulyator o'rnatuvchisi, 8) quyosh batareyasi ta'mirlovchi
Chiqindini qayta ishlab chiqarish	1) Chiqindilarni maxsus joylarga tashish bilan shug'ullanuvchi xodimlar;	1) chiqindilarni qayta ishlovchi mutaxassis, 2) qayta ishlovga chiqindilarni

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

	2) chiqindi maydonlari nazoratchisi, 3) chiqindilarni preslash muxandisi,	etkazib beruvchi xodimlar, 3) chiqindidan mahsulotlar tayyorlash mutaxassisi, 4) chiqindi texnikalari ustasi, 5) chiqindi orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlar marketologi.
Shamol elektr stansiyalari	1) Elektr energiya xodimlari; 2) Elektr hisoblagich ishlab chiqaruvchi xodimlar;	1) shamol generatorlarini ishlab chiquvchi xodimlar, 2) shamol generatorlarini 3) shamol generatori ustasi, 4) shamol elektr stansiyalari arxitektori va mutaxassislari.

Bugungi kunda Toshkent viloyati Parkent tumanida quyosh elektr stansiyasi o'z faoliyatini olib bormoqda. Elektr stansiyada quyosh energiyasidan foydalangan holda 30 dan ortiq mahsulot ishlab chiqarilmoqda va 500 dan ortiq xodimlar faoliyat olib borishmoqda. "yashil" iqtisodiyot talablariga moslashishi va faoliyat turlarini kengaytirish natijasida 1,5 mingga yaqin ish o'rni yaratilishi kutilmoqda. Chiqindini qayta ishlash zavodi faoliyatining yo'lga qo'yilishi natijasida chiqindidan 20 dan ortiq mahsulot ishlab chiqarish va 2,0 mingdan ortiq ish zrnini ta'minlanishi nazarda tutilgan. Shamol elektr stansiyalari faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida esa 1,8 mingga yaqin ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda.

Xulosa va natijalar

Mamlakatimiz rahbarining 2030-yilgacha mamlakatimizni "Yashil" iqtisodiyotga o'tkazish strategiyasidan kelib chiqqan holda Toshkent viloyati aholisini "yashil" iqtisodiyot va unga o'tish jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha turdagi to'siqlar va kamchiliklarga bardosh berishlari uchun kerakli vazifalar ishlab chiqish, chinakam moslashuvchan mehnat bozori barpo etish, qolaversa o'tish davrida mintaqa mehnat bozoriga kirib kelishi kutilayotgan yangi kasblarni statistik o'rganish. Mintaqa mehnat bozoridan chiqib ketishi kutilayotgan kasb egalarini "Yashil" iqtisodiyot to'g'risidagi bilimlarini oshirish hamda "yashil" iqtisodiyotga moslashuvchanligini ta'minlash bo'yicha amaliy taklif va

tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Toshkent viloyati aholisining ko'p qismi yonlanma ishlarda ishlashni ma'qul ko'rishadi, mehnat bozorining hozirgi holatiga mustaqil rivojlanish davrida mehnat resurslarining o'sishi mehnatda bandlik darajasining o'sishidan yuqori bo'ldi. Natijada iqtisodiy faol aholining yoki mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi mehnatda bandlik darajasi 67-70% ni tashkil etmoqda. Ayni paytda respublikamiz mehnat bozorida ish o'rinlarining ko'payayotgani hamda aholi turmush darajasi sezilarli ravishda o'sayotganidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu holatni mehnat bozorida mehnatda bandlik darajasi to'liq hisobga olinmayotgani bilan izohlash mumkin.

Respublikamiz hududlarida demografik rivojlanishning asosiy tendensiyasi tug'ilishning ko'payishida namoyon bo'lmoqda. Bu esa aholining yosh guruhlari tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Mehnat bozorining hozirgi holatiga statistik manbalar asosida amalga oshirilgan tahlillar mehnatda bandlarning mutlaq miqdori barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini, bu holat ularning mehnat resurslariga nisbatida aniq namoyon bo'layotganini va mehnatda bandlarning jami aholi soniga nisbatan o'sish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <http://ilostat.ilo.org>., Устойчивое развитие, достойный труд и зеленые рабочие места. Пуатый пункт повестки днуа. Международное бюро труда. – Женева 2021.

2. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori.** *Prezident.uz*.

3. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2022-yil 29-dekabrdagi Oliy majlisga navbatdagi murojaatnomasi.** *Prezident.uz*.

4. Q.X.Abduraxmonov., “Mehnat iqtisodiyoti” darslik. Toshkent-2021. Iqtisodiyot. 156-205 bet.

5. Варфоломеева О.А. Становление инфраструктуры рынка труда в переходной экономике. – СПб., Издательство СПВУЭФ. 2001.

6. Колесникова О. Об оценке эффективности работы службы занятости // Человек и труд. - 2002. - № 3. - С. 55 - 56.

7. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
<https://Stat.uz>.